



“THE CENTRAL ASIA COMMUNITY” – AN EXPRESSION OF TRUE UNITY AMONG NATIONS

Diloram Babajanova

Doctor of Historical Sciences, Professor
(Uzbekistan State University of World Languages)
90/185-58-54 dilorambabajanova52@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17841054>

ARTICLE INFO

Received: 29th November 2025

Accepted: 05th December 2025

Online: 06th December 2025

KEYWORDS

Consultative meeting, nations,
good-neighborliness, regional
cooperation, regional unity,
solidarity of peoples, interethnic
harmony, national values, social
cohesion.

ABSTRACT

The article examines the issues put forward at the Seventh Consultative Meeting of the Heads of State of Central Asia held in Tashkent at the initiative of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev. It presents reflections on further improving cooperation mechanisms and the contractual-legal framework of principal importance, strengthening regional cooperation, and implementing joint projects and initiatives in priority areas. The article also provides a scientific analysis of the fact that transforming regional dialogue from a consultative format into the strategic format of the “Central Asia Community” has become a requirement of the times. As this topic is becoming one of the most relevant areas of research, the main focus is placed on presenting it through a scientific and systematic approach based on historical conclusions.

СООБЩЕСТВО ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ» — ВЫРАЖЕНИЕ ИСТИННОГО ЕДИНСТВА НАРОДОВ

Дилорам Бабажанова

Доктор исторических наук, профессор
(Узбекский государственный университет мировых языков)
90/185-58-54 dilorambabajanova52@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17841054>

ARTICLE INFO

Received: 29th November 2025

Accepted: 05th December 2025

Online: 06th December 2025

KEYWORDS

Консультативная встреча,
нации, добрососедство,
региональное
сотрудничество,
общеобластное единство,
солидарность народов,
межнациональное согласие,

ABSTRACT

В статье рассматриваются вопросы, выдвинутые по инициативе Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на седьмой Консультативной встрече руководителей государств Центральной Азии, прошедшей в Ташкенте. Излагаются мысли о дальнейшем совершенствовании механизмов сотрудничества и договорно-правовой базы, имеющих принципиальное значение, а также о дальнейшем укреплении регионального



национальные ценности,
социальная сплочённость.

взаимодействия и реализации совместных проектов и инициатив в приоритетных сферах. Кроме того, с научной точки зрения анализируется тот факт, что превращение регионального диалога из консультативной формы в стратегический формат «Сообщества Центральной Азии» становится требованием времени. Поскольку данный вопрос становится одним из наиболее актуальных направлений для исследователей, основное внимание в статье уделено его освещению на основе научного и системного подхода, опирающегося на исторические выводы.

“MARKAZIY OSIYO HAMJAMIYATI” – MILLATLARNING CHINAKAM HAMJIHATLIGI IFODASI

Diloram Babajanova

Tarix fanlari doktori, professor

(O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti) 90/185-58-54

diloramababajanova52@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17841054>

ARTICLE INFO

Received: 29th November 2025

Accepted: 05th December 2025

Online: 06th December 2025

KEYWORDS

Maslahat uchrashuvi, millatlar, yaxshi qo‘shnichilik, mintaqaviy hamkorlik, umummintaqaviy hamjihatlik, xalqlar birdamligi, millatlararo hamjihatlik, milliy qadriyatlar, ijtimoiy birdamlik.

ABSTRACT

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ilgari surilgan masalalar, prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan hamkorlik mexanizmlari va shartnomaviy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash hamda ustuvor sohalarda qo‘shma loyiha va tashabbuslarni amalga oshirish xususidagi fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, mintaqaviy muloqotning maslahat shaklidan “Markaziy Osiyo hamjamiyati” strategik formatiga aylantirishni davrning o‘zi taqozo etayotgani ilmiy nuqtai nazardan tahlil etish tadqiqotchilar uchun g‘oyat dolzarb mavzulardan biriga aylanayotganligi bois, mazkur mavzuda asosiy e‘tibor tarixiy xulosalarga asoslangan holda ilmiy va tizimli yondashuv asosida yoritib berishga qaratilgan.

1. Dolzarbligi:

Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi ko‘p asrlik do‘stlik, millatlararo totuvlik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, barqarorlik va ayniqsa, hamkorlikni ta‘minlashda yaxshi



qo'shnichilik munosabatlari hamda madaniy aloqalarning o'rne hamisha, har qanday vaziyatda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Dunyodagi hech bir mamlakat, davlat o'z tashqi siyosatini boshqa mamlakat, davlat va ularning xalqlari bilan aloqa bog'lamasdan yakka holda yurita olmaydi. Zero, O'zbekiston hukumati ham o'z siyosiy mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki yillardanoq, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, barcha davlatlar bilan ko'p tomonlama manfaatdorlik aloqalarini mustahkamlashga katta e'tibor qaratdi. Keyingi yillarda ayniqsa, mintaqa davlatlari rahbarlarining uchrashuvlarini muntazam o'tkazish haqidagi O'zbekiston tashabbusining ilgari surilishi, hozirgi kunda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun butunlay yangi imkoniyatlar vujudga kelayotganini ko'rsatdi. Yaqin yillar ichida mintaqa davlatlari rahbarlarining o'zaro tashriflari, muntazam uchrashuv va muzokaralari natijasida bir qator dolzarb muammolar o'z amaliy yechimini topayotgani, yangi shartnoma va kelishuvlarning imzolanishi hamkorlikni yanada kengaytirish uchun keng yo'l ochib bermoqda.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mintaqamizda yangi siyosiy muhitning shakllanishida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvlarining o'rne va ahamiyati beqiyosdir"[1.-B.362]. Hamkorlikdagi barcha sa'y-harakatlar, loyiha va dasturlar, o'zaro ishonch va hurmat muhitini mustahkamlab, mintaqa xalqlari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan va ularning manfaatlariga to'liq javob beradigan mintaqaviy hamkorlikni izchil rivojlantirishga va mazmunan boyitishga xizmat qilmoqda. Ezgu intilishlar zamiridagi pok niyat va buyuk ishonch mujassam bo'lgan totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlar, ayniqsa, jahon ahliga yaxshi ma'lum bo'lgan, mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan aniq maqsad yo'lidagi bunyodkorlik ishlari amaliy natija bermoqda.

Markaziy Osiyoda ko'p asrlik, tarixan tarkib topgan do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, insonparvarlik munosabatlari, bir-birini qo'llab-quvvatlash va hamkorlikning turli jihatlarini izchil tahlil etish mustaqillikka erishgan hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan milliy manfaatlarni takomillashtirish, salbiy hodisalarning paydo bo'lish xavfini o'z vaqtida anglab yetish, mintaqada yashab turgan barcha millat va elatlarni jipslashtirish, ular o'rtasidagi hamjihatlik, osoyishtalik va barqarorlikni mustahkamlash, mustaqillik ruhiyatini ko'tarish va hamkorlikdagi ishlarining amaliy samarasini yosh avlod ongi va qalbiga singdirish borasidagi vazifalarni hal etish yuzasidan asosli takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018 yil 15 mart kuni Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda Prezident nutq so'zlab, "G'oyat qisqa muddatda tashkil etilgan ushbu sammit, hech mubolag'asiz, tarixiy voqeadir"[2], deb ta'kidladi. Darhaqiqat, ko'p yillik samarali hamkorlik tarixida birinchi marta bo'lib bo'lib o'tgan ushbu voqea mintaqa xalqlari o'rtasidagi haqiqiy qardoshlik munosabatlarining yorqin ifodasi bo'ldi. Mintaqa rahbarlarining ushbu uchrashuv sammitida mintaqa mamlakatlari o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, terrorism, diniy ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashish,



Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash kabi keng ko'lamli masalalar muhokama qilingan.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan ochiqlik va hamkorlik siyosati natijasida mintaqaviy muloqot yangi mazmun kasb etdi. Bu jarayonning mantiqiy davomi sifatida "Markaziy Osiyo hamjamiyati" tashabbusi dunyoga taqdim etildi.

Bu g'oya nafaqat siyosiy ahamiyatga, balki umummintaqaviy taraqqiyot, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Mintaqada avlodlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, shuningdek, umummintaqaviy hamjihatlik va o'ziga xoslikni mustahkamlashga xizmat qiladi O'zbekistonda bag'rikenglik va millatlararo totuvlik – davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida tarixiy ildiz va mustahkam qonuniy asoslarga ega. Jamiyatdagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat va birdamlik kabi oliyjanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga uyg'un yashash tamoyili tobora mustahkamlanib borayotgani O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining hayot tarzi jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilmoqda. Bu o'lkada 130 dan ortiq millat va elat vakillari yagona oila farzandlaridek ahil yashayotganligi, ana shunday ko'p sonli millat va elat vakillarining birgalikda, hamnafas va hamjihat bo'lib umr kechirishi natijasida ular bir-birlarini ma'naviy va madaniy jihatdan boyitib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonining "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" nomli V bandida "Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash" masalasi 74-maqсадda keltirilgan bo'lib, unda "millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta'minlash" zarurligi ta'kidlangan[3]. Mamlakatda turli millatlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z milliy urf-odatlarini va madaniyatlarini yanada boyitishlari va rivojlantirishlari uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, millatlararo hamjihatlik va totuvlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston atalmish jannatmakon yurtning, Yangi Konstitutsiyasining 19-moddasida ta'kidlanganidek, "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar" [4.13.], – deb belgilab qo'yilganligi, ko'pmillatli xalqimiz o'rtasidagi totuvlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash uchun yaratilgan zamindir. Zero, Prezident Sh.Mirziyoyevning "Jamiyatimizda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarimiz sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda" [5.38.], deb ta'kidlangani ham bejiz emas.

Ma'lumotlarga ko'ra, yer yuzidagi ikki yuzga yaqin davlatda 7 milliard 700 million kishini tashkil etadigan, 7000 til va lahjada gaplashadigan aholi istiqomat qilmoqda. Jahonning etnik xaritasiga e'tibor berilsa, bugungi kunda dunyoda miqdoran bir necha



yuztadan tortib bir necha yuz millionni tashkil etadigan 2000 ga yaqin har xil millat va elatlar yashayotganiga guvoh bo'lish mumkin. Shunday ekan, millatlararo bag'rikenglik, ular orasida o'zaro hurmat va do'stona aloqalarni o'rnatish orqaligina dunyoda barqarorlik, osoyishtalikni ta'minlashning asosiy omili bo'lib qolaveradi[6]. O'zaro munosabatlar ta'sirida ko'p millatli xalqimizning turmush tarzi yanada yuksalib borayotgani sabab, Yangi O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi imidji kun sayin ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Shuningdek, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishi, o'z qiziqishi va layoqati bo'yicha kasb-hunar egallashi, mehnat qilishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ayni paytda turli millat va elatlarning milliy an'ana va qadriyatlarini asrab-avaylash, ularni yanada rivojlantirish, boyitish masalasi davlat siyosatining doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yetti tilda – o'zbek, qoraqalpoq, rus, qirg'iz, turkman, qozoq va tojik tillarida bilim berilayotgani, shuningdek, ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millatlarning 10 ta tilida faoliyat olib borayotgani buning yorqin ifodasidir [7]. Zero, millatlararo totuvlik, hamjihatlik va ayniqsa, o'zaro munosabatlarni ta'minlash borasida amalga oshirilgan tadbirlar jamiyat birdamligini ta'minlashda muhim omil ekan, ularning natijalarini tahlil etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Ushbu maqola umum e'tirof etilgan metodlar, jumladan tarixiy-taqqoslash, qiyosiy-tahlil, tizimlashtirish, sosiologik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar yangi bosqichga ko'tarilgani, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan ochiqlik va hamkorlik siyosati natijasida mintaqaviy muloqot yangi mazmun kasb etayotgani, bu jarayonning mantiqiy davomi sifatida "Markaziy Osiyo hamjamiyati" tashabbusi dunyoga taqdim etilayotgani yangi yondashuvlar asosida ochib berilgan, bu borada qabul qilingan ko'plab kelishuvlar, shartnomalar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati ochib berilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari 2018 yildan buyon doimiy tarzda o'tkazib kelinayotgani mintaqadagi o'zaro ishonch va hamjihatlikning amaldagi ifodasidir. Ushbu uchrashuvlarda: chegara, suv-energetika masalalari, transport-logistika aloqalarini kengaytirish, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, madaniy-gumanitar hamkorlikni kuchaytirish kabi ustuvor yo'nalishlar muhokama qilinib kelinmoqda. "Bugungi kunda Markaziy Osiyo – barqaror o'sish va farovonlik uchun oldimizda yangi imkoniyatlar ochayotgan jadal taraqqiyot va samarali hamkorlik makonidir"[8], dedi Sh.Mirziyoyev.

Mintaqa kun sayin jahon iqtisodiyotiga faol integratsiyalashmoqda: investisiyaviy jozibadorlik oshmoqda, uchinchi bozorlarga eksport qilish imkoniyatlari kengaymoqda, tranzit salohiyati o'smoqda. 2024 yilda mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi 10,7 milliard dollarga yetdi, Markaziy Osiyoga kiritilgan investisiyalarning umumiy hajmi 17 foizga ko'paydi. Xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, terrorizm va ekstremizm, transchegaraviy jinoyatchilik tahdidlariga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tizimli



choralar ko'rilmoqda. Mintaqaning xalqaro munosabatlar sub'yekti sifatidagi mavqeyi mustahkamlanib, global masalalardagi roli ortib bormoqda, "Markaziy Osiyo plyus" formatidagi munosabatlar kuchaymoqda, mintaqa nufuzli xalqaro maydonlarda yagona pozisiya bilan maydonga chiqmoqda. Bu format Markaziy Osiyoda ochiq muloqotning institusional asosini yaratdi.

2025 yil 16 noyabr kuni Toshkentda bo'lib o'tgan yettinchi Maslahat uchrashuvida Prezident Shavkat Mirziyoyev mintaqaviy muloqotni yanada mustahkamlash va uni strategik asosga ko'chirish maqsadida "Markaziy Osiyo hamjamiyati"ni shakllantirish g'oyasini ilgari surdi. Yangi strategik bosqich hisoblangan ushbu tashabbus quyidagi maqsadlarga xizmat qilishi ta'kidlandi:

1. Siyosiy muvofiqlashuvni kuchaytirish. Davlatlar o'rtasidagi strategik hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish.

2. Iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish. Qo'shma loyihalar, yagona bozor elementlari, savdo aylanmasini oshirish.

3. Xavfsizlikni ta'minlash. Terrorizm, ekstremizm, transchegaraviy tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish.

4. Madaniy-gumanitar yaqinlikni mustahkamlash. Mintaqa xalqlarining umumiy tarixi, qadriyatlari va madaniyatini asrash va targ'ib qilish.

Bu g'oya Markaziy Osiyoni umumiy manfaatlar asosida birlashtiruvchi yangi strategik platforma sifatida namoyon bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari asrlar davomida o'zaro qardoshlik, madaniy yaqinlik va savdo-iqtisodiy munosabatlar orqali bir-biri bilan bog'langan. Bugungi kunda ham:

- millatlararo totuvlik,
- ijtimoiy birdamlik,
- umummintaqaviy hamjihatlik mintaqaning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. "Hamkorlik mexanizmlari va shartnomaviy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish prinsipial ahamiyatga egadir. Uchrashuvlarimizni mintaqaviy muloqotning maslahat shaklidan "Markaziy Osiyo hamjamiyati" strategik formatiga aylantirishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Ushbu maqsad yo'lida formatimiz institusional va tashkiliy asoslarini izchil mustahkamlashni nazarda tutadigan Maslahat uchrashuvlari to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish, rotatsiya asosida faoliyat yuritadigan Kotibiyatni ta'sis etish, milliy muvofiqlashtiruvchilar maqomini Prezidentlarning maxsus vakillari darajasiga ko'tarishni taklif etamiz" [9], deb ta'kidladi Prezident Sh.Mirziyoyev.

"Markaziy Osiyo hamjamiyati" aynan shu qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan konsepsiya bo'lib, u kelgusi avlodlar uchun tinch va farovon mintaqani barpo etishga xizmat qiladi. Zero, mintaqaviy hamjihatlik – taraqqiyotning asosiy sharti hisoblanadi. Bundan tashqari, u xalq diplomatiyasi sohasidagi qadriyat va an'analarga tayangan holda, boy hayotiy tajriba va obro'-e'tiborga ega jamoat arboblardan iborat Oqsoqollar kengashini tuzishni maqsadga muvofiq, deb hisoblashini ham bildirdi. Albatta, bu mamlakatlar avlodlari o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, shuningdek, umummintaqaviy hamjihatlik va o'ziga xoslikni mustahkamlashga xizmat qilishi, shubhasiz.



Sammitda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo'mart To'qayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, shuningdek, BMTning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari Kaxa Imnadze ishtirok etdi. Kun tartibiga muvofiq, mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash hamda ustuvor sohalarda qo'shma loyiha va tashabbuslarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Sammit avvalida Prezident Mirziyoyev Ozarbayjon Maslahat uchrashuvlari formatiga to'la huquqli a'zo sifatida qo'shilganini bilan e'lon qildi. O'zbekiston yetakchisining ta'kidlashicha, bu qaror mushtarak tarix, qardoshlik rishtalari, ma'naviy va madaniy yaqinlik bilan uzviy bog'langan ishtirokchi mamlakatlar xalqlarining manfaatlariga to'liq javob beradi. Shuningdek, ushbu strategik qadam Maslahat uchrashuvlariga kuchli shiddat berishiga, savdo-iqtisodiy, investisiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish, barqaror taraqqiyot masalalari bo'yicha hamjihatlikda qarorlar ishlab chiqish uchun yangi ufqlar ochishiga ishonch bildirildi.

"Biz Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o'rtasida mustahkam ko'prik barpo etmoqdamiz, hamkorlikning yagona makonini shakllantirishga yo'l ochmoqdamiz. Bu ikki mintaqaning strategik bog'liqligi va barqarorligini kuchaytirishi shubhasiz" [10], dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev. So'ng O'zbekiston yetakchisi keyingi yillarda mintaqada amalga oshirilayotgan integratsiya jarayonlarini qisqacha tahlil qildi. Ochiq muloqot va birgalikdagi faol sa'y-harakatlar tufayli mintaqa uchun dolzarb bo'lgan qator muammolarga samarali yechimlar topilgani ta'kidlandi.

Hududiy masalalar uzil-kesil hal etilgani, chegara punktlari ochilgani, suv-energetika sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lga qo'yilgani, transport aloqalari qayta tiklangani, faol savdo-investisiyaviy va gumanitar aloqalar uchun qulay sharoitlar yaratilgani, O'zbekiston raisligi davrida 20 dan ortiq yirik tadbirlar o'tkazilgani aytib o'tildi. Ta'kidlanishicha, Bosh vazir o'rinbosarlari darajasida Hududlararo hamkorlik forumi faoliyati yo'lga qo'yildi, ilk bor mudofaa idoralari, maxsus xizmatlar rahbarlari, shuningdek, geologiya, sanoat, qishloq xo'jaligi, ekologiya va madaniyat vazirlarining yig'ilishlari o'tkazildi. Shuningdek, Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollarining muloqoti muvaffaqiyatli o'tkazildi. Ushbu tadbirlarning barchasi mintaqaviy sheriklikning institusional asoslari va mexanizmlari tizimli ravishda mustahkamlanib borayotganidan yaqqol dalolat ekani ta'kidlandi.

Mirziyoyev murakkab va oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan xalqaro siyosiy jarayonlar sharoitida mintaqa mamlakatlarining hamjihatligi va bir-birini qo'llab-quvvatlashini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev 2025 yil 16 noyabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvidagi nutqida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning amalga oshirayotgan ishlariga to'xtalib, uni uzoqni ko'ra olish qobiliyatiga ega siyosatchi sifatida e'tirof etdi. "Avvalo, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining yettinchi maslahat uchrashuvida ishtirok etish taklifi uchun O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevga chuqur minnatdorlik bildiraman. O'zbekiston tomoniga an'anaviy mehmondo'stligi uchun tashakkur bildiraman. Birodarim



Shavkat Miromonovichning dono rahbarligi ostida O‘zbekiston rivojlanish va bunyodkorlik yo‘lidan ishonchli tarzda bormoqda”, dedi u. I.Aliyevning so‘zlariga ko‘ra, Mirziyoyevning yuqori xalqaro mavqei, samarali iqtisodiy islohotlari, sanoat, transport va qishloq xo‘jaligidagi keng ko‘lamli loyihalari O‘zbekistonni mintaqada yetakchi mavqega ko‘targan. “Prezidentning kundalik g‘amxo‘rligi tufayli O‘zbekiston dunyoning yetakchi sport davlatlari qatoridan joy olgan. Yaqinda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiada o‘yinlari buni yaqqol ko‘rsatdi. Shavkat Miromonovich nafaqat dono davlat arbobi, balki O‘zbekiston-Ozarbayjon munosabatlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan insondir” [11], deb ta’kidladi u. Uning aytishicha, Ozarbayjonda Mirziyoyev o‘zining aniq harakatlari va Ozarbayjon xalqiga bo‘lgan mehrli munosabati uchun seviladi va hurmat qilinadi. Ozarbayjon yetakchisi o‘z nutqida davlatlar rahbarlari bilan Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurganiga to‘xtaldi. Uning urg‘ulashicha, Prezident Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu markaz uning O‘zbekistonning boy madaniy merosiga bo‘lgan sadoqatining yana bir dalilidir.

Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart To‘qayev Prezident Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida bergan takliflarini qo‘llab-quvvatlashini aytdi. “Jahon maydonida yuz berayotgan o‘zgarishlar sharoitida mamlakatlarimiz mintaqani Yevroosiyoning asosiy transport-logistika markaziga aylantirish uchun noyob imkoniyatga ega, bu haqda hozirgina hurmatli Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ishonchli tarzda gapirib o‘tdi”, dedi u o‘z nutqida. Qosim-Jomart To‘qayev O‘zbekiston Prezidentini Samarqandda UNESCO Bosh konferensiyasining muvaffaqiyatli o‘tkazilgani bilan tabrikladi va u haqiqatdan ham muhim forum ekanini aytib o‘tdi. “Hozirgi kunda xalqlarimizning noyob tarixiy-madaniy merosiga asoslangan mintaqaviy o‘ziga xoslikni mustahkamlash ayniqsa muhimdir. Biz Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdik. Bu ulug‘vor, noyob inshootdir. Haqiqatan ham, bu ilmiy, sayyohlik, etnomadaniy loyihadir” [12], ta’kidlaydi u. Qozog‘iston rahbari Prezident Mirziyoyevning Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazi ushbu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun umumiy maydonga aylanishi mumkinligi haqidagi fikriga ham qo‘shilishini aytdi.

Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov Toshkentda bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi maslahat uchrashuvida ishtirok etdi. U o‘z nutqida samimiy qabul va mehmondo‘stlik uchun O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga minnatdorlik bildirib, Samarqand shahrida UNESCO Bosh Assambleyasining 43-sessiyasi muvaffaqiyatli o‘tgani bilan tabrikladi. “Avvalo, O‘zbekiston Prezidenti, muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyevga an’anaviy samimiy qabul va mehmondo‘stlik uchun chuqur minnatdorlik bildiraman. Biz Markaziy Osiyoning chinakam hamjihatligi muhiti sezilayotgan qardosh O‘zbekistonga doimo o‘zgacha tuyg‘u bilan kelamiz” [13], dedi Japarov.

Qirg‘iziston rahbari mintaqada iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash muhimligini ta’kidladi. Uning ma’lum qilishicha, Markaziy Osiyo davlatlaridan Qirg‘izistonga o‘tgan yili to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investisiyalar hajmi 15 foizga oshib, 135 million dollarga yetgan. Oxirgi uch yilda Qirg‘izistonning mintaqqa bilan tovar ayirboshlash hajmi 28 foizga oshib, joriy yilning yanvar-avgust oylarida 1,7 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2024 yilning shu



davriga nisbatan 14 foizga oshgan. Sadir Japarov transport infratuzilmasini rivojlantirishga ham e'tibor qaratdi. U "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" temiryo'li qurilishining strategik ahamiyatini ta'kidladi, uning aytishicha, bu yangi transport arteriyasini yaratib, logistika yo'nalishlarini qisqartiradi, Osiyo va Yevropaning yirik bozorlariga yo'l ochadi. Shu nuqtai nazardan, u "Zangezur yo'lagi" loyihasi temiryo'lining mantiqiy va strategik davomi bo'lishini, mintaqaviy transport aloqalarini mustahkamlashini ta'kidladi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etish uchun Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmon ham Toshkentga keldi va Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashuv va muzokaralar o'tkazdi. Ular Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdi va "Kelajak merosi" xalqaro mukofoti sovrindorlarini taqdirlash marosimida ishtirok etdi. Bundan tashqari, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan 16 noyabr kuni Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham davlat tashrifi bilan Toshkentga keldi.

Davlat rahbarlarining mazkur uchrashuvlarini mintaqaviy muloqotning maslahatlashuv shaklidan "Markaziy Osiyo hamjamiyati" strategik formatiga aylantirish taklif qilindi. Maslahat uchrashuvlari to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish, navbatma-navbat ishlaydigan Kotibiyatni ta'sis etish, milliy muvofiqlashtiruvchilar maqomini Prezidentlarning maxsus vakillari darajasiga ko'tarish bu boradagi dastlabki qadamlar bo'lishi mumkinligi ta'kidlandi. Shuningdek, O'zbekiston rahbari boy hayotiy tajribaga ega, obro'-e'tiborli jamoat arboblardan iborat Oqsoqollar kengashini tuzish tashabbusini ilgari surdi, bu avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni, shuningdek, umummintaqaviy hamjihatlik va o'ziga xoslikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shavkat Mirziyoyev savdo-iqtisodiy va investisiyaviy hamkorlikni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqish vazifasi ustuvor ekani, bu o'rta muddatli istiqbolda o'zaro savdo va umumiy tashqi savdo aylanmasi hajmini 1,5-2 barobar oshirish imkonini berishini ko'rsatib o'tdi. Ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, soliq va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, erkin iqtisodiy va sanoat zonalaridan birgalikda foydalanish muhimligi ta'kidlandi. "Bizning nuqtai nazarimizda, yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha masalalarni qamrab oladigan, savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha 2035 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan keng qamrovli mintaqaviy dasturni ishlab chiqish va qabul qilish savdo hajmlarini sezilarli darajada oshirish uchun qulay sharoit yaratish imkonini beradi" [14], deb ta'kidladi Prezident Sh.Mirziyoyev.

Bundan tashqari, mintaqada yagona investisiya muhitini shakllantirish uchun Umumiy investisiya makoni to'g'risidagi deklaratsiyani qabul qilish zarurligi qayd etildi. Sohadagi yondashuvlarni uyg'unlashtirish, virtual savdo maydonchalari va ishonchli raqamli to'lov tizimlarini yaratishga qaratilgan Elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Mintaqaning yuqori texnologik infratuzilmasi va transport-logistika salohiyatini birgalikda rivojlantirish mintaqa kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega ekani alohida ta'kidlandi.

Mintaqa mamlakatlari uchun ekologiya, iqlim va suv resurslari taqchilligi masalalari tobora dolzarb bo'lib borayotgani sharoitida Markaziy Osiyoning "yashil" taraqqiyot



konsepsiyasini tez fursatda qabul qilish muhimligi qayd etildi. Mintaqada suv tanqisligi ortib borayotganini hisobga olib, 2026-2036 yillarni “Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo’yicha amaliy harakatlar o’n yil

Madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Shu ma’noda, Islom sivilizatsiyasi markazi yoshlar, ularning ilmiy va ma’naviy ma’rifati uchun jozibador maskanga aylanishiga umid bildirildi. Ushbu mavzuni rivojlantirish maqsadida O’zbekiston Prezidenti mintaqaning atoqli olim va mutafakkirlarining global ma’rifat rivojiga qo’shgan hissasiga bag’ishlangan BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari surdi.

Ilmiy-ta’lim kooperatsiyasi doirasida davlatlararo loyihalarni moliyalashtirish, akademik hamjamiyatni rag’batlantirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish imkoniyatlarini kengaytirish uchun Ilmiy tadqiqotlar fondini tashkil etish taklif qilindi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev so’zining yakunida bugun qabul qilinayotgan hujjatlar va ilgari surilayotgan tashabbuslarda barqaror, xavfsiz va farovon Markaziy Osiyoni barpo etishdek umumiy maqsad mujassam ekanini ta’kidladi.

Mintaqaviy muloqotning maslahatlashuv shaklidan “Markaziy Osiyo hamjamiyati” strategik formatiga aylantirilishining asosiy vazifalari sifatida jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag’rikenglikni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, do’stlik va qardoshlikka asoslangan yagona oila tuyg’usi muhitini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek, do’stona xalqaro aloqalarni yo’lga qo’yish, o’zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning fuqarolik hamjamiyatlari, shu jumladan chet ellarda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan do’stlikni mustahkamlash borasidagi ishlarni samarali muvofiqlashtirish kabi jihatlar ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko’rish mumkin. Prezident Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu markaz o’z faoliyati doirasida jamiyatda millatlararo totuvlik va bag’rikenglikni ta’minlash bo’yicha davlat siyosatini izchil hamda samarali amalga oshirib, respublikadagi mavjud 150 ta milliy-madaniy markaz [15.174.] bilan hamkorlik qilvdi. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyevning “...mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar totuvligi, o’zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko’z qorachig’idek saqlash hamda mustahkamlashni o’zinning ustuvor vazifam, deb hisoblayman” [16.8-9.], deb ta’kidlagani ham ayni muddao edi.

O’z navbatida, YUNESKO tashkiloti ham dunyoda tinchlik, dinlar va konfessiyalararo muloqot o’rnatish, millat va elatlar hamkorligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib keladi. O’zbekistonda tom ma’noda yaxshi qo’shnihilikning yuksak an’analariga amal qilinayotgani jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bugungi osuda hayotimizning qadriga yetish, jamiyatimizda hukm surayotgan turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar o’rtasidagi bag’rikenglikni, fuqarolar orasidagi o’zaro hurmat, mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash barchamizning asosiy burchimizdir” [17.311.], deb ta’kidlagani ham bejiz emas.

4. Xulosa:



Markaziy Osiyo davlatlari uchun hozirgi davr tarixiy imkoniyatlar davridir. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbus qilgan “Markaziy Osiyo hamjamiyati” g’oyasi mintaqaning umumiy manfaati, xavfsizligi va birdamligini ta’minlashga qaratilgan strategik qadamdir. “Alohida ta’kidlamoqchiman: bizning kuchimiz – birlikda, muvaffaqiyat sari yo’limiz – do’stlik va hamkorlikda. Faqat hamjihat bo’lib, o’zaro hurmat, birdamlik va strategik yondashuvlarga tayanib, ezgu maqsadlarimizga erishishimiz mumkin” [18], dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Davlat rahbari, shuningdek, Turkmaniston Prezidentini 2026 yilda davlat rahbarlarining “Markaziy Osiyo va Ozarbayjon” yangi formatida bo’lib o’tadigan Maslahat uchrashuviga raislikni qabul qilib olgani bilan tabrikladi. Shu bilan birga, kelgusida amalga oshirilishi nazarda tutilgan quyidagi yangi tashabbuslar ham e’lon qilindi:

- mintaqaviy siyosatning yangi bosqichini,
- xalqlar o’rtasidagi do’stlik va ishonchning mustahkamlanishini,
- milliy va umumiy qadriyatlarining asrab-avaylanishini ta’minlaydi.

Bexato, [01.12.2025 14:18]

Umuman olganda, respublikada diniy tashkilot va muassasalarning barpo etilishi natijasida diniy bag’rikenglik tamoyillarining yaxshi yo’lga qo’yilganligi, milliy an’ana va qadriyatlarni yanada rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan ezgu ishlar, ko’rsatilayotgan ulkan e’tibor va g’amxo’rliklar, yaratilayotgan barcha imkoniyat va sharoitlar bugungi hayotimizda aks etmoqda, millatlararo munosabatlarni takomillashtirish va yanada uyg’unlashtirishda muhim omil bo’lmoqda.

Shu bois, mazkur g’oyani ilmiy jihatdan o’rganish, uning amaliy ahamiyatini tahlil qilish va milliy manfaatlar bilan uyg’unlashgan holda rivojlantirish kelgusi tadqiqotlar uchun dolzarb vazifalardan biri bo’lib qoladi.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2021.– B.362.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvidagi nutqi// Xalq so’zi. 2018. 16 mart.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-son Farmoni// <https://lex.uz/docs/5841063>.
4. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: O’zbekiston, 2023. – B.24.
5. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O’zbekiston demokratik o’zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda/Sh.Mirziyoyev. – Toshkent:O’qituvchi MU MCHJ, 2021.–B.38.
6. Aldabergenov I. Millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik – birdamlik omili//<https://qoraqalpoq.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=35743>.
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 noyabrdagi “Millatlararo munosabatlar sohasida O’zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5876-son Farmoni// <https://uza.uz/posts/201635>.



8. Mirziyoyev sammitda qator tashabbuslarni ilgari surdi//
<https://qalampir.uz/n/127180>
9. Maslahat uchrashuvi "Markaziy Osiyo hamjamiyati"ga aylantiriladi//
<https://qalampir.uz/n/127183>.
10. Mirziyoyev sammitda qator tashabbuslarni ilgari surdi//
<https://qalampir.uz/n/127180>
11. Ilhom Aliyev Shavkat Mirziyoyevni "uzoqni ko'ra oladigan siyosatchi" deb atadi//
<https://qalampir.uz/n/127192>.
12. To'qayev Mirziyoyevning barcha takliflarini qo'llab-quvvatlashini aytdi//
<https://qalampir.uz/news/tuk-ayev-uzbekistonga-tashrifini>.
13. Sadir Japarov O'zbekistonga doimo o'zgacha tuyg'u bilan kelishini aytdi//
<https://qalampir.uz/news/sadir-zhapparov-uzbekistonga>.
14. Mirziyoyev sammitda qator tashabbuslarni ilgari surdi//
<https://qalampir.uz/n/127180>
15. Oqil Salimov. Yangi O'zbekiston davlati.–Toshkent:Ma'naviyat, 2023.–B.174.
16. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz//O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishgan tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent:O'zbekiston, 2016. –B.8-9.
17. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B.311.
18. Mirziyoyev sammitda qator tashabbuslarni ilgari surdi//
<https://qalampir.uz/n/127180>